



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 62 sahifa,
11-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik masalalari: muammoning nazariy va amaliy jihatlar.....	10
A. A. Alimov, M. A. Rustamboyeva	
Bolalarda didaktik o'yinlar asosida aqliy faolligini rivojlantirish	16
Ismoilova Sabina Erkin qizi	
Ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari	22
Nazarov Zafarjon Abdullajon o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	26
Sabirova Gulmira Sadik qizi	
Реализация компетентностного и нейродидактического подходов в профессиональной подготовке специалистов профессионального образования	32
Азизова Асалхон Руслановна	
Развитие воображения учащихся с нарушением зрения в процессе изобразительной деятельности... 36	
Бектурдиева Шохид Сатиболдиевна	
Musiq ta'limida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	44
Rustamjonova Dilhas Ravshanbek qizi	
Tarbiyaviy jarayonlarda texnologik yondashuvni tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlari	50
Raxmatova Mexrinov Majitovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari.....	54
Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna	

BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KO'RISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0009-1755-4812

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limning zamonaviy konsepsiyasi, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari hamda maxsus pedagog kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan yangi talablar asosida mazkur tayyorgarlikning mazmuni aniqlashtirilgan. Bo'lajak maxsus pedagogning inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorligi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilinib, uning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, amaliy-texnologik va refleksiv-baholash komponentlaridan tashkil topuvchi tuzilmasi asoslangan. Talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda keys-stadi, muammoli vaziyatlar, mikrodars, kasbiy-amaliy topshiriqlar, tiflotexnik va assistiv vositalardan foydalanish, ta'lim materiallarini moslashtirish, pedagogik amaliyot hamda refleksiv portfolio imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida nazariy tayyorgarlik, modellashtirilgan kasbiy faoliyat va real inklyuziv amaliyotni integratsiyalashga asoslangan ilmiy-metodik mexanizm taklif etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus pedagog, tiflopedagogika, ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, assistiv texnologiyalar, ta'limni moslashtirish, refleksiya, pedagogik amaliyot.

Abstract: This article analyzes the scientific and methodological foundations for preparing future special education teachers to work with children with visual impairments in inclusive education settings. Based on the modern concept of inclusive education, the special educational needs of blind and visually impaired children, as well as the new requirements imposed on the professional activity of special education teachers, the content of such preparation has been clarified. The readiness of a future special education teacher to work with children with visual impairments in inclusive education settings is interpreted as an integrative professional quality, and its structure consisting of motivational-value, cognitive-methodological, practical-technological, and reflective-evaluative components is substantiated. The possibilities of case study, problem situations, microteaching, professional-practical tasks, the use of typhlotechnical and assistive tools, adaptation of educational materials, pedagogical practice, and reflective portfolio in developing students' professional preparedness are highlighted. As a result of the study, a scientific and methodological mechanism based on the integration of theoretical preparation, simulated professional activity, and real inclusive practice is proposed.

Key words: inclusive education, special education teacher, typhlopedagogy, children with visual impairments, professional preparedness, professional competence, assistive technologies, adaptation of education, reflection, pedagogical practice.



Аннотация: В данной статье проанализированы научно-методические основы подготовки будущих специальных педагогов к работе с детьми, имеющими нарушения зрения, в условиях инклюзивного образования. На основе современной концепции инклюзивного образования, особых образовательных потребностей слепых и слабовидящих детей, а также новых требований, предъявляемых к профессиональной деятельности специального педагога, уточнено содержание данной подготовки. Готовность будущего специального педагога к работе с детьми, имеющими нарушения зрения, в условиях инклюзивного образования рассматривается как интегративное профессиональное качество, обоснована её структура, включающая мотивационно-ценностный, когнитивно-методический, практико-технологический и рефлексивно-оценочный компоненты. Освещены возможности использования кейс-стади, проблемных ситуаций, микроуроков, профессионально-практических заданий, тифлотехнических и ассистивных средств, адаптации учебных материалов, педагогической практики и рефлексивного портфолио в развитии профессиональной подготовки студентов. В результате исследования предложен научно-методический механизм, основанный на интеграции теоретической подготовки, моделируемой профессиональной деятельности и реальной инклюзивной практики.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальный педагог, тифлопедагогика, дети с нарушениями зрения, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, ассистивные технологии, адаптация обучения, рефлексия, педагогическая практика.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida inklyuzivlik ta'lim oluvchilarning individual farqlarini muammo sifatida emas, balki ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyati sifatida qabul qilishga asoslangan ustuvor pedagogik paradigma sifatida qaralmoqda. Inklyuziv ta'limning samaradorligi faqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani umumiy ta'lim muassasasiga qabul qilish bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy samarasi bolaning ta'lim mazmunidan foydalanishi, darsda faol ishtirok etishi, tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi va individual ta'lim natijalariga erishishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim sifatida belgilangan. Prezidentning 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son¹ qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son² qarori respublikada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limini tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yanada mustahkamladi. O'zbekiston tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi esa ta'lim olish huquqining tenglik, kamsitmaslik va maqbul moslashtirish tamoyillari asosida ta'minlanishiga alohida ahamiyat berdi.

Mazkur jarayon oliy pedagogik ta'lim oldiga yangi vazifani - bo'lajak mutaxassisni faqat maxsus ta'lim muassasasida emas, balki turli ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar birgalikda tahsil oladigan inklyuziv muhitda ham samarali faoliyat yuritishga tayyorlash vazifasini qo'yimoqda.

Ayniqsa, ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish maxsus pedagogdan umumiy inklyuziv kompetensiyalar bilan bir qatorda tiflopedagogik bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Bunday bolalar o'quv axborotining katta qismini ko'rish orqali qabul qilish imkoniyati cheklanganligi sababli ta'lim mazmunining taktil, eshituv, predmetli-amaliy va raqamli muqobillarini yaratishga ehtiyoj sezadilar. Shu sababli bo'lajak maxsus pedagog Brayl yozuvi, taktil grafika, audio tavsif, yiriklashtirilgan bosma materiallar, ekran o'qish dasturlari, kattalashtiruvchi vositalar, raqamli hujjatlar ochiqqligi, fazoda mo'ljal olish va mustaqil harakatlanishni qo'llab-quvvatlash kabi maxsus texnologiyalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishni bilishi zarur.

Shu jihatdan bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashning mazmuni, tuzilishi va metodik mexanizmlarini aniqlashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi - bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda mazkur tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim masalasi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda ta'lim tizimini barcha o'quvchilarning xilma-xilligiga moslashtirish jarayoni sifatida o'rganiladi. UNESCOning "Inclusion and Education: All Means All" global hisobotida inklyuzivlikning samarasi o'quv dasturi, baholash tizimi, pedagoglar tayyorgarligi, ta'lim muhiti va oila hamda jamiyat bilan hamkorlikning o'zaro muvofiqligiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

1 <https://lex.uz/docs/-5044711>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5679836>

L. Florian tomonidan ilgari surilgan inklyuziv pedagogika konsepsiyasida pedagogning "ayrim bolalar uchun alohida ta'lim" tashkil etishidan ko'ra, mavjud ta'lim imkoniyatlarini barcha o'quvchilar uchun kengaytirishi muhimligi asoslangan. L. Florian va J. Spratt inklyuziv pedagogning kasbiy faoliyatida o'quvchilar o'rtasidagi farqlarni tabiiy holat sifatida qabul qilish, barcha bolalarning o'rganish imkoniyatiga ishonish hamda ta'lim jarayonini moslashuvchan tashkil etishni yetakchi omillar sifatida qayd etadilar.

European Agency for Special Needs and Inclusive Education tomonidan ishlab chiqilgan "Profile of Inclusive Teachers" modelida inklyuziv pedagog faoliyatining to'rtta asosiy qadriyati ajratilgan: o'quvchilar xilma-xilligini qadrlash, barcha o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va uzluksiz kasbiy rivojlanish. Mazkur yondashuv bo'lajak maxsus pedagogning kasbiy tayyorgarligini faqat bilim va metodik usullar yig'indisi bilan cheklab bo'lmayligini ko'rsatadi.

Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bilan bog'liq tadqiqotlar mazkur yo'nalishda maxsus tayyorgarlik zarurligini ko'rsatadi. C. Martinning tadqiqotida ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchi bilan ishlash tajribasi yetarli bo'lmagan pedagoglarda o'z kasbiy imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik kuzatilishi qayd etilgan. Bu holat maxsus metodik bilim va real amaliy tajribaning pedagog kasbiy ishonchini shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi.

D. Baser va T. Kamali-Arslantas tomonidan bo'lajak maxsus pedagoglarning ko'rishida muammolari bo'lgan shaxslar uchun assistiv texnologiyalardan foydalanishga doir o'z-o'zini samarali deb baholashini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarda Brayl texnologiyalari, raqamli hujjatlar ochiqqligi, bosma axborotdan foydalanish, dasturiy vositalarning mosligi va o'quv materiallarini ochiq raqamli formatga o'tkazish alohida kompetensiyalar sifatida ko'rsatilgan.

A.E. Mbowe va S.M. Anselimusning 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqoti bo'lajak pedagoglarni ko'rishida muammolari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashda maxsus mazmunning yetishmasligi, malakali mutaxassislar, moslashtirilgan didaktik vositalar va yetarlicha davom etadigan pedagogik amaliyotning mavjud emasligi kasbiy tayyorgarlik sifatini pasaytiruvchi muhim omillar ekanini ko'rsatadi.

Mazkur nazariy qarashlar bo'lajak maxsus pedagog tayyorgarligida "bilish - bajarish - hamkorlik qilish - refleksiya qilish" birligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo'lib, unda pedagogik va maxsus pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, pedagogik modellash va kompetensiyaviy yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslarini:

- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv;
- tizimli yondashuv;
- inklyuziv pedagogika tamoyillari;
- universal ta'lim dizayni g'oyalari;
- maxsus pedagogikaning korreksion-kompensator yondashuvlarini tashkil etdi.

Nazariy tahlil natijasida "bo'lajak maxsus pedagogning inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorligi" tushunchasiga mualliflik nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'rif berildi: Bo'lajak maxsus pedagogning inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorligi - bu talabaning inklyuziv qadriyatlarni qabul qilishi, ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarning rivojlanish va ta'lim ehtiyojlarini bilishi, ta'lim mazmunini ularning individual imkoniyatlariga moslashtira olishi, maxsus va assistiv texnologiyalardan foydalanishi, jamoaviy hamkorlikni tashkil etishi hamda o'z pedagogik faoliyatini refleksiv baholay olishini birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifatidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak maxsus pedagog kasbiy tayyorgarligining tarkibiy komponentlari

Olib borilgan nazariy tahlil asosida mazkur kasbiy tayyorgarlikning o'zaro bog'liq to'rtta komponentdan tashkil topishi asoslandi.



1. Motivatsion-qadriyatli komponent

Ushbu komponent bo'lajak maxsus pedagogning:

- har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini tan olishi;
- ko'rishdagi muammoni bolaning imkoniyatlarini to'liq belgilab beruvchi omil sifatida qabul qilmasligi;
- o'quvchilar xilma-xilligiga ijobiy munosabatda bo'lishi;
- inklyuziv ta'lim qadriyatlarini kasbiy e'tiqod sifatida qabul qilishi;
- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning mustaqilligi hamda ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga intilishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur komponent bo'lajak mutaxassisning keyingi barcha pedagogik faoliyatiga yo'nalish beradi. Chunki metodik bilimlarning mavjudligi inklyuziv qadriyatlar shakllanmagan sharoitda kutilgan pedagogik samarani bermaydi.

2. Kognitiv-metodik komponent

Ushbu komponent talabaning quyidagi bilimlarni egallashini nazarda tutadi:

- ko'rish buzilishlarining pedagogik tasnifi;
- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari;
- ko'rish idroki va kompensator jarayonlarning xususiyatlari;
- taktil va eshituv idrokining ta'lim jarayonidagi ahamiyati;
- Brayl tizimida o'qish va yozish asoslari;
- predmet tasavvurlarini shakllantirish;
- fazoda mo'ljal olish va harakatlanishni qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy-maishiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- o'quv materialini pedagogik moslashtirish;
- differensial va individual yondashuv;
- inklyuziv sinfda baholashni moslashtirish;
- ota-ona va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish asoslari.

Demak, inklyuziv ta'lim bo'yicha umumiy nazariy bilimlar tiflopedagogik mazmun bilan integratsiyalashgandagina bo'lajak maxsus pedagogning faoliyatiga amaliy asos bo'la oladi.

3. Amaliy-texnologik komponent

Mazkur komponent kasbiy vaziyatlarda bilimlarni real harakatlarga aylantira olish bilan bog'liq bo'lib, bo'lajak maxsus pedagogning quyidagi ko'nikmalarini qamrab oladi:

- dars materialining ko'rish imkoniyatlariga mosligini tahlil qilish;
- vizual axborotni taktil, audio yoki predmetli-amaliy shaklga o'tkazish;
- yirik shriftli va kontrastli didaktik materiallarni tayyorlash;
- Brayl yozuvidagi ta'lim materiallari bilan ishlash;
- taktil rasm, xarita, sxema va grafiklarni qo'llash;
- matnli fayllarning ekran o'qish dasturlariga mosligini ta'minlash;
- audiotavsifdan foydalanish;
- individual ta'lim ehtiyojiga mos topshiriqlar ishlab chiqish;
- umumiy sinf faoliyatini bolaning faol ishtirokini saqlagan holda moslashtirish;
- pedagog, maxsus pedagog, psixolog, ota-ona va boshqa mutaxassislar bilan jamoaviy rejalashtirishni amalga oshirish.

Bugungi kunda mazkur komponent tarkibida raqamli ochiqlik va assistiv texnologiyalar kompetensiyasining o'zni tobora ortmoqda. Chunki elektron darslik yoki taqdimotning mavjudligi uning avtomatik ravishda ko'zi o'z o'quvchi uchun ochiq ekanini anglatmaydi. Bo'lajak maxsus pedagog hujjatning semantik tuzilishi, sarlavhalar ketma-ketligi, alternativ matn, jadval va tasvirlarning ochiqlik kabi jihatlarni ham hisobga olishi lozim.

4. Refleksiv-baholash komponenti

Mazkur komponent talabani:

- o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi;
- tanlangan metodning bolaning real ehtiyojiga mosligini baholashi;
- pedagogik xatolarni aniqlashi;
- o'quvchi faoliyatidagi o'zgarishlarga asoslanib, metodik qarorlarni qayta ko'rib chiqishi;
- ota-ona, pedagog va boshqa mutaxassislarining fikr-mulohazalaridan foydalanishi;

individual kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashi bilan belgilanadi.

Refleksiya kasbiy tayyorgarlikning yakuniy emas, balki barcha bosqichlarni birlashtiruvchi mexanizmi sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqot natijasida bo'lajak maxsus pedagoglarni tayyorlashni "nazariy anglash - modellashtirilgan faoliyat - real amaliyot - refleksiv takomillashtirish" ketma-ketligi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Birinchi bosqich - diagnostik-maqsadli bosqich

Bosqichning maqsadi talabalarining inklyuziv ta'limga munosabati, tiflopedagogik bilimlari, assistiv texnologiyalar bo'yicha dastlabki ko'nikmalari va kasbiy qiyinchiliklarini aniqlashdan iborat.

Bunda so'rovnoma, diagnostik topshiriq, vaziyatli savol, o'z-o'zini baholash va kasbiy keyslar qo'llanilishi mumkin.

Ikkinchi bosqich - mazmuniy-metodik bosqich

Mazkur bosqichda inklyuziv ta'lim nazariyasi bilan tiflopedagogik bilimlarning fanlararo integratsiyasi ta'minlanadi.

Masalan, "Tiflopedagogika", "Tiflopsixologiya", "Tiflotexnika va Brayl tizimida o'qish va yozish", "Mo'ljal olish va harakatlanishga o'rgatish", "Predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish" kabi fanlarda egallangan bilimlar inklyuziv ta'limdagi real pedagogik vaziyatlar bilan bog'lanadi.

Uchinchi bosqich - amaliy-texnologik bosqich

Talaba kasbiy faoliyatni modellashtiruvchi topshiriqlarni bajaradi.

Masalan:

1-vaziyat. Umumta'lim maktabining 4-sinfiga zaif ko'ruvchi o'quvchi qabul qilindi. Darslikdagi matn hajmi va kontrasti bolaning ko'rish imkoniyatiga mos emas. Talaba ushbu o'quv material uchun moslashtirish algoritmini ishlab chiqadi.

2-vaziyat. Ko'zi o'z o'quvchi geografiya darsida xarita bilan ishlashi kerak. Talaba vizual xaritani taktil va og'zaki tavsif asosida qanday ochiqshatirishni rejalashtiradi.

3-vaziyat. O'qituvchi PowerPoint taqdimotidan foydalanmoqda. Slaydlardagi asosiy ma'lumot tasvirlar orqali berilgan. Talaba ko'zi o'z o'quvchining mazkur materialdan teng foydalanishi uchun alternativ taqdimot shaklini ishlab chiqadi.

Bunday kasbiy vaziyatlar talabani bilimni tayyor shaklda qayta aytib berishidan uni pedagogik qaror qabul qilish darajasiga olib chiqadi.

To'rtinchi bosqich - amaliyot va hamkorlik bosqichi

Bo'lajak maxsus pedagogning haqiqiy kasbiy tayyorgarligi real ta'lim muhitidagi faoliyatsiz shakllanmaydi. Shu sababli pedagogik amaliyotda talabaga faqat kuzatuvchi vazifasini berish yetarli emas.

Talaba:

- bolaning ta'lim ehtiyojini pedagogik kuzatishi;
- dars materialining ochiqlikini baholashi;
- maxsus pedagog bilan birgalikda moslashtirilgan topshiriq yaratishi;



- dars yoki mashg'ulotning ayrim qismini mustaqil o'tkazishi;
- bola faoliyatini kuzatishi;
- mutaxassis va ota-onalar bilan muhokamada ishtirok etishi;
- natijalarni refleksiv qayd etishi zarur.

Beshinchi bosqich - refleksiv-baholash bosqichi

Talabani kasbiy rivojlanishini faqat an'anaviy yozma nazorat orqali baholash yetarli emas. Shu sababli kompetensiyaga asoslangan baholash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda:

- kasbiy portfolio;
- mikrodars;
- keys yechimi;
- moslashtirilgan didaktik material;
- assistiv texnologiyani amaliy qo'llash;
- pedagogik vaziyatni tahlil qilish;
- o'z-o'zini baholash;

mentor xulosasi asosiy baholash vositalari bo'lishi mumkin.

Bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini baholash uchun quyidagi mezonlarni ajratish mumkin:

- qadriyatli-motivatsion mezon - inklyuziv qadriyatlarni qabul qilish, kasbiy motivatsiya, bolaning imkoniyatlariga ijobiy munosabat;
- nazariy-metodik mezon - inklyuziv ta'lim va tiflopedagogika bo'yicha tizimli bilimlarning mavjudligi;
- amaliy-texnologik mezon - o'quv muhitini moslashtirish, maxsus va assistiv vositalardan foydalanish, pedagogik vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati;
- refleksiv-kommunikativ mezon - o'z faoliyatini baholash, jamoaviy hamkorlik qilish va kasbiy rivojlanishni rejalashtirish qobiliyati.

Mazkur mezonlar asosida kasbiy tayyorgarlikning uch darajasi tavsiya etiladi:

1. **Boshlang'ich daraja** - talaba nazariy tushunchalarni biladi, biroq ularni kasbiy vaziyatlarda mustaqil qo'llashda yordamga ehtiyoj sezadi.
2. **Funksional daraja** - talaba tipik pedagogik vaziyatlarda moslashtirish va maxsus pedagogik usullarni mustaqil tanlay oladi.
3. **Ijodiy-professional daraja** – talaba murakkab va nostandart inklyuziv vaziyatlarni tahlil qiladi, individual pedagogik yechim ishlab chiqadi, hamkorlikni tashkil etadi va o'z faoliyatini dalillarga tayangan holda takomillashtiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- *birinchidan*, bo'lajak maxsus pedagogning inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorligi integrativ kasbiy sifat sifatida aniqlashtirildi;
- *ikkinchidan*, mazkur tayyorgarlikning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, amaliy-texnologik va refleksiv-baholash komponentlaridan iborat tarkibiy tuzilmasi asoslandi;
- *uchinchidan*, nazariy tayyorgarlik, modellashtirilgan kasbiy topshiriqlar, real inklyuziv amaliyot va refleksiv baholash integratsiyasiga asoslangan ilmiy-metodik mexanizm taklif qilindi;
- *to'rtinchidan*, ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorgarlikni baholashning mezonlari va boshlang'ich, funksional hamda ijodiy-professional darajalari belgilandi.

Tahlil natijalari bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlashni alohida bir nazariy fan doirasida tashkil etish yetarli emasligini ko'rsatadi. Inklyuziv kompetensiyalar talabani butun kasbiy tayyorgarlik jarayoniga singdirilishi zarur.

European Agency tomonidan taklif qilingan inklyuziv pedagog profilidagi o'quvchilar xilma-xilligini qadrlash, barcha o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, jamoaviy hamkorlik va uzluksiz professional rivojlanish yo'nalishlari tadqiqotimizda aniqlangan komponentlar bilan mazmunan uyg'unlashadi.

Biroq ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlash maxsus pedagog tayyorgarligiga qo'shimcha talablarni kiritadi. Xususan, umumiy inklyuziv pedagogik kompetensiyalar Brayl tizimi, taktil grafika, assistiv texnologiyalar, vizual axborotni muqobil shaklda berish, ko'ruv idrokidan funksional foydalanish, fazoviy mo'ljal olish va mustaqillikni rivojlantirish kabi tiflopedagogik kompetensiyalar bilan to'ldirilishi lozim.

Baser va Kamali-Arslantas tadqiqotlarida assistiv texnologiyalar bo'yicha o'z-o'ziga ishonchning alohida kompetensiya sifatida o'rganilishi hamda Mbowe va Anselimus tomonidan real amaliyot va maxsus resurslar yetishmasligining bo'lajak pedagog tayyorgarligiga salbiy ta'siri aniqlanishi biz taklif qilayotgan "nazariya - modellashirilgan faoliyat - real amaliyot" integratsiyasining metodologik jihatdan asosli ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, talabning ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan bevosita va pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan hamkorligi kasbiy stereotiplarning kamayishi, bolaning real imkoniyatlarini anglash va pedagogning professional ishonchini shakllantirish uchun muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy-metodologik tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi bo'lajak maxsus pedagog kasbiy tayyorgarligining mazmunini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bugungi mutaxassis maxsus ta'lim muassasasi bilan chegaralanib qolmasdan, umumta'lim muhitida ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning sifatli ta'lim olishini pedagogik jihatdan ta'minlay olishi kerak.

Ikkinchidan, ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, amaliy-texnologik va refleksiv-baholash komponentlarining o'zaro birligida shakllanadigan integrativ kasbiy sifatdir.

Uchinchidan, kasbiy tayyorgarlikda an'anaviy ma'ruza va seminarlar bilan cheklanish o'rniga keys-stadi, kasbiy vaziyatlar, mikrodarslar, ochiq o'quv materiallarini yaratish, assistiv texnologiyalar bilan ishlash, pedagogik amaliyot va refleksiv portfolio kabi faol metodlarni tizimli joriy etish zarur.

To'rtinchidan, pedagogik amaliyot bo'lajak maxsus pedagogning kasbiy tayyorgarligini shakllantiruvchi markaziy komponentlardan biri bo'lib, talabning real inklyuziv muhitda bola, pedagog, maxsus pedagog, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlik qilish tajribasini egallashini ta'minlashi lozim.

Beshinchidan, oliy ta'lim dasturlarida inklyuziv pedagogika va tiflopedagogik kompetensiyalarning fanlararo integratsiyasi, assistiv texnologiyalardan foydalanish, raqamli ta'lim materiallarining ochiqligini ta'minlash va individual moslashtirish bo'yicha amaliy modullarni kuchaytirish bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mazkur ilmiy-metodik yondashuv kelgusida bo'lajak maxsus pedagoglarning inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlik darajasini aniqlash mezonlari, diagnostik metodikalari va tajriba-sinov texnologiyasini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 68-70.
2. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash.// *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 80-82.
3. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg'ulotlar ish tizimini tashkil etish.// *Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали*, 218-220.
4. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. *Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari*, 1(1), 365-368.
5. Dehqonova, M. G., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta'limda ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish. *Maktab va hayot*, 1(3), 31-35.
6. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta'limga jalb qilingan zaif ko'ruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. *Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari*, 1(1), 156-157.
7. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2022). Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. *International Journal of Philosophical Studies and Social Science*, 1(1), 365-368.
8. Хуснуддинова, З. Х. (2022). Эмоционально-выразительное озвучивание произведений как фактор воспитания незрячих детей. *Воспитание детей дошкольного возраста, Воспитание детей дошкольного возраста*, 1(1), 55-59.
9. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology*, 1(20), 1217-1224.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.